

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SIDDIQOV MURODXO‘JA ABDUJALOL O‘G‘LI

**POLISAXARIDLARNING KARBOKSIMETILLI
KOMPOZITSİYALARINI SINTEZI VA ULARNI QO‘LLANILISH
SOHALARI**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORLIK (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz-2025

Falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктор философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy PhD)

Siddiqov Murodxo‘ja Abdujalol o‘g‘li Polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezi va ularni qo‘llanilish sohalari	3
Сиддиқов Муродхўжа Абдужалол уғли Синтез карбоксиметильных соединений полисахаридов и области их применения	21
SiddiqovMurodxo‘ja Abdujalol ugli Synthesis of carboxymethyl compounds of polysaccharides and their fields of use	41
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works	44

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SIDDIQOV MURODXO‘JA ABDUJALOL O‘G‘LI

**POLISAXARIDLARNING KARBOKSIMETILLI
KOMPOZITSİYALARINI SINTEZI VA ULARNI QO‘LLANILISH
SOHALARI**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORLIK (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz-2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5839 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasining (www.tersu.uz) hamda «Ziyonet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Murodov Muzaffar Muradovich
texnika fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Xusenov Arslonnazar Shernazarovich
kimyo fanlari doktori, professor

Allaberdiyev Farxod Xamroyevich
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01. raqamli Ilmiy kengashning “___” ____ 2025 yil soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№__raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatilgan.

(2025 yil «__» _____ dagi №__ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.A.Umbarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

Sh.A.Kasimov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, k.f.d., prof.

R.V.Aliqulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyoda kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sonini, sifat ko'rsatkichlarini oshirish, tannarxini arzonlashtirish natijasida dunyo bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash uchun keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, sanoatda sellyulozani olish va uning asosida olinadigan organik materiallarni ishlab chiqarishda yog'och chiqindilaridan sellyuloza olish jarayoni bosqichlarini takomillashtirish, kimyo, tibbiyot, farmasevtika, lak-bo'yoq sanoatlarida, neft, gaz hamda qurilish sohalarida ishlatiladigan sellyuloza va uning hosilari asosidagi kamtonnajli yarim tayyor hamda tayyor organik mahsulotlar olish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

Dunyoda tabiiy xomashyo bo'lgan sellyuloza va uning asosida olinadigan organik materiallarni ishlab chiqarishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, durodgorlik va gugurt ishlab chiqarish sanoati chiqindilarini mexanik va kimyoviy qayta ishlash natijasida sellyuloza va uning hosilalarini olish, ular asosida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, tayyor mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlarini oshirish, yuqori ekspluatatsion va fizik-mexanik xossalariga ega bo'lgan organik materiallarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ilg'or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida muayyan yutuqlarga erishilmoqda va keng ko'lamli ilmiy-amaliy ishlar izchil amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida¹ "sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar olish texnologiyalarini o'zlashtirish va takomillashtirish" ga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, bir yillik o'simliklar poyasidan kimyoviy qayta ishlashga yaroqli sellyuloza asosida yangi turdagi organik materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-sonli "Mamlakatimiz iqtisodiy tarmoqlarini zarur mahsulotlar va xom ashyo turlari bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983 sonli "O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 3-apreldagi "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4265-son qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiyaning tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mahalliy ikkilamchi xom ashyolar asosida kimyoviy qayta ishlashga yaroqli bo'lgan sellyuloza ajratib olish, hamda olingan polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini sintez qilish va ularni qo'llanish sohalariga doir bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari negizida yangi – innovatsion texnologiyani ishlab chiqish borasida, jumladan sellyuloza va uning hosilalarini olish jarayonidagi usullar va ular asosidagi kimyoviy jarayonlarda turli omillarini muqobil parametrlarini aniqlash, hamda ishlab chiqarishga tavsiya etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarni tahlil qilinganda quyidagi chet el va Respublikamiz olimlaridan V.Y.Bitenskiy, Z.A.Rogovin, N.I.Nikitin, YE.L.Kuznetsova, G.A.Petropavloskiy, N.I.Klenkova, N.N.Shorigina, YE.P.Shirokov, G.P.Nemsova, V.N.Kryajev, M.P.Kozlov, D.M.Flyate, A.V.Obolenskaya, Z.P.Yelnitskaya, A.A.Leonovich, Y.Mironov, V.N.Golubev, I.V.Volkova, X.N.Kumalanov, X.U.Usmonov, T.Y.Toshpo'latov, T.M.Mirkomilov, G.V.Nikonovich, K.X.Rozikov, G.R.Raxmanberdiyev, A.S.Turayev, A.A.Sarimsakov, M.M.Murodov, SH.M.Mirkomilov, A.S.Sidikov, R.Sayfutdinov va boshqalar ushbu sohani rivojlanishiga katta xissa qo'shganlar.

Ushbu tadqiqot ishida mahalliy xom ashyo sanalmish paxta linti hamda gugurt ishlab chiqarish korxonalarining “Kaliforniya” navli terak daraxtini ikkilamchi xom ashyolaridan olingan sellyulozalarni kimyoviy qayta ishlab, ular asosida karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezi tadqiqi natijalarini sanoat miqyosida ishlab chiqarishga tadbiq etish muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga egadir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent innovatsion kimyoviy texnologiyalar ilmiy – tadqiqot instituti hamda Toshkent kimyo-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IOT-2015-7-18 A-12-23 “Tarkibida sellyuloza saqllovchi sanoat korxonalarining tolali chiqindilaridan turli sohalar uchun qog'oz kompozitlari olish texnologiyasini yaratish va soha tarmoqlarida qo'llash” (2016-2018 yy.), IOT 2017-7-6 “Sellyuloza va mahalliy xom ashyolar asosida dekorativ shtukaturka suyuq devor gul qog'ozlarini olishning innovatsion texnologiyasini yaratish va sanoat miqyosida ishlab chiqarishga joriy etish” (2016-2018 yy.) mavzusidagi innovatsion va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Kaliforniya teragi ikkilamchi xom ashyosidan olingan kimyoviy qayta ishlashga yaroqli sellyuloza asosida polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini olish texnologiyasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gugurt ishlab chiqarishda foydalaniladigan Kaliforniya teragining ikkilamchi xom ashyosini kimyoviy qayta ishlashga yaroqli sellyuloza olish jarayoniga yo'naltirish;

Kaliforniya teragining ikkilamchi xom ashyosidan kimyoviy qayta ishlashga yaroqli sellulozani olishning turli texnologik jarayonlarini tadqiq etish va ularning muqobil parametrlarini ishlab chiqish;

ajratib olingan turli markalardagi sellulozalarning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash;

"Kaliforniya" navli terak sellulozasi, paxta sellulozasi hamda kraxmallar asosida polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezining innovatsion texnologiyasini yaratish;

olingan karboksimetilli kompozitsiyalarni sifat ko'rsatkichlarini va xossalarni fizik kimyoviy tahlil usullarida o'rganish va qo'llanilish sohasini aniqlash;

polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezi tadqiqi natijasida yaratilgan innovatsion texnologiyasini ishlab chiqarishga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kraxmal, gugurt ishlab chiqarish korxonalarining "Kaliforniya" navli teragining ikkilamchi xom ashyolari, paxta linti, hamda ularni kimyoviy qayta ishlash yo'li bilan olingan selluloza markalari, kraxmal, ishqor quyqasi tarkibidagi lignin olingan.

Tadqiqotning predmeti Kaliforniya teragining ikkilamchi xom ashyolarini ishqor eritmasida pishirish jarayoni, olingan selluloza va kraxmal asosida texnik karboksimetilli kompozitsiyasi, neft-gaz sanoatida burg'ulash qorishmalarini stabillovchi reagent sifatida qo'llash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda viskozimetriya, titrimetriya, namunalarni kulligini aniqlash, sorbsiya, nabuxometriya, suvni o'tkazishini aniqlash va boshqa fizik-kimyoviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

gugurt ishlab chiqarishda foydalaniladigan Kaliforniya teragining ikkilamchi xom ashyosidan birinchi bosqichda 60 daqiqa davomida mexanik yanchish va ikkinchi bosqichda 160°C haroratda 40 g/l konsentratsiyali ishqor eritmasi ishtirokida 80 daqiqa mobaynida ishqoriy ishlov berish yordamida kimyoviy qayta ishlashga yaroqli selluloza olingan;

Kaliforniya teragining ikkilamchi xom ashyosidan olingan selluloza unumi 54,6%, kul miqdori 0,93%, α -selluloza 94,8%, hamda polimerlanish darajasi 1050 ni tashkil etishi va kimyoviy qayta ishlashga yaroqli selluloza olish texnologik jarayonlarining maqbul parametrlari aniqlangan;

"Kaliforniya" navli terak sellulozasi, paxta sellulozasi va kraxmal asosida polisaxaridlarning 105/1000, 100/950, 105/750, 95/850 markali karboksimetilli kompozitsiyalarini olishning "SISTEM" usuli texnologiyasi ishlab chiqilgan;

sintez qilingan karboksimetilli kompozitsiyalar asosida neft-gaz sanoati uchun burg'ulash qorishmalarini barqarorlashtiruvchi reagentlar olingan va ularning sifat ko'rsatkichlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gugurt ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan Kaliforniya teragining ikkilamchi xom ashyosidan kimyoviy qayta ishlashga yaroqli selluloza olingan;

olingan selluloza, paxta sellulozasi va kraxmal asosida burg'ulash qorishmalarini barqarorlovchi reagent bo'lgan polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini termik barqaror markalari olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy-tadqiqot ishida olingan natijalar tadqiqotlar va tahlillar natijasida olingan ilmiy natijalar va xulosalarning ishonchliligi tadqiqotlarni amalga oshirishda aniqligi yuqori bo'lgan viskozimetriya, titrimetriya, namunalarni kulligini aniqlash, sorbsiya, nabuxometriya, suvni o'tkazishini aniqlash kabi fizik-kimyoviy usullardan foydalangan, shuningdek, zamonaviy nazariyalar hamda tegishli tenglamalardan foydalangan holda, eksperimental natijalar asosida tahlil qilinib, matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, asosli xulosalar chiqarilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Kaliforniya teragining ikkilamchi xom ashyosidan kimyoviy qayta ishlashga yaroqli selluloza olish texnologik jarayonlarining maqbul parametrlarini aniqlash va karboksimetilli kompozitsiyalar sintezini amalga oshirish, yog'och sanoati chiqindilari, xususan, terak daraxtining po'stlog'i, maydalangan yog'och qoldiqlari ikkilamchi xom ashyo sifatida qo'llanilishi, har bir bosqichning harorat, bosim, pH, reagent sarfi va ishlov berish vaqti kabi parametrlarining selluloza chiqishi va sifat ko'rsatkichlariga ta'sir aniqlanganligi, shuningdek, mahalliy xom ashyodan yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar olish imkonini bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati terak sellulozasi, paxta sellulozasi va tabiiy kraxmallar asosida karboksimetilli kompozitsiyalar sintezi va sintez jarayonida natriy monoxloratsetat yordamida efirifikatsiya reaksiyasida hosil bo'lgan karboksimetil hosilalarining efirifikatsiya darajasi, suvda eruvchanligi, yopishqoqlik xususiyatlari va ion almashinish qobiliyati aniqlanganligi, olingan karboksimetil kompozitsiyalarni farmatsevtika, oziq-ovqat, to'qimachilik va qog'oz sanoatida tabiiy polimer asosidagi ekologik toza qo'shimchalar sifatida ishlatilishga, shuningdek, ulardan suvda eruvchan, bioparchalanadigan materiallar olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gugurt ishlab chiqarish sanoati chiqindilaridan kimyoviy qayta ishlashga yaroqli selluloza olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Terak, paxta sellulozalari va kraxmallar asosida polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezining yaratilgan innovatsion texnologiyasi "Karbonam" MCHJda burg'ulash qorishmalarini yangi barqarorlovchi tarkibi ishlab chiqish uchun amaliyotga joriy etilgan ("Gissarneftgaz" O'zbekiston-Shveysariya qo'shma korxonasining 2023 yil 26 apreldagi 238-01/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, olingan Na-KMS va PAS larning qo'shilishi burg'ulash eritmasining filtratsion va reologik xossalarini yaxshilash imkonini bergan.

Olingan polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini asosida sintez qilingan Na-KMS va PAS lar "Karbonam" MCHJda burg'ulash qorishmalarini ishlab chiqarish uchun amaliyotga joriy etilgan ("Gissarneftgaz" O'zbekiston-Shveysariya qo'shma korxonasining 2023 yil 26 apreldagi 238-01/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, olingan Na-KMS va PAS ni burg'ulash eritmalarini tayyorlashda import qilinadigan reagentlar o'rniga qo'llash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola mahalliy va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning xajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurligi haqida ma'lumot berilgan, maqsad va vazifalari keltiri o'tilgan, obekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fani va texnologiyasi rivoglanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, tadqiqot nanigalarining ilmiy yangiliga va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga tadbiiq qilinishi ochib berilgan, shuningdek, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar kelnirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mahalliy xom ashyolar asosida kimyoviy qayta ishlashga yaroqli bo'lgan sellyuloza ajratib olish, hamda ushbu polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezi va ularni qo'llanilish sohalariga doir bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari”**ga qaratilgan birinchi bobida bir va ko'h yillik o'simliklardan kimyoviy qayta ishlashga yaroqli sellulozani ajratib olishning maqbul texnologik jarayonlarini ishlab chiqish, ularni kimyoviy modifikatsiyalab turli organik materiallar sintez qilish, fizik kimyoviy va mexanik hossalarni organish hamda amalda qo'llanish sogalarini aniqlashga yo'nalnirilgan ilniy-tadqiqjt ishlar tahlil keltirilgan. Xususan ajratib olingan sellyulozalar asosida uning karboksimetilli hossalarni sintezi, sifat ko'rsatgichlarini o'rganish va xalq xo'jaligining turli sanoat tarmoqlarida, hamda neft-gaz quduqlqrini burg'ulash qorishmalari tayorlashga tadbiiq etishga bag'ishlangan adabiyotlar ma'lumotlarini qiyosiy tahlillariga bag'ishlangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obektlari va usullari”** deb nomlangan **ikkinchi bobi** uslubiy qismdan iborat bo'lib, unda tadqiqjt obektlar va usullari hamda reagentlarning tavsiflari keltirilgan.

“Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ikkilamchi mahsulotlaridan sellyulozaning bir nechta markalarini olish, hamda karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezi” ga bag'ishlangan **uchinchi bobida**, gugurt ishlab chiqarish korxonalarining ikkilamchi mahsulotlaridan sellyulozalar ajratib olish uchun kimyoviy qayta ishlash, jarayoniga yo'naltirish, xom ashyo sifatida ishlatilnadigan Kaliforniya teragining ikkilamchi mahsulotlari asosida sellyuloza olish jarayonida turli parametrlarning ta'sirini tadqiq etish, hamda ajratib olingan turli markalardagi sellyulozalarning fizik-kimyoviy xossalari hamda sifat ko'rsatkichlari yoritilgan.

Ushbu bo'limda maxalliy ishlab chiqaruvchilarning ikkilamchi mahsulotlaridan sellulozaning bir nechta markalarini olish, hamda karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezi borasida amaliy ishlar natijalari ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, gugurt ishlab chiqarish korxonalarining ikkilamchi xom ashyolarini kimyoviy qayta ishlashga yaroqli selluloza ajratib olish jarayoniga yo'naltirish tadqiqotlari olib borildi.

Terak daraxtining 30 ga yaqin turi mavjud bo'lib, MDH davlatlarida juda ko'p miqdorda yetishtiriladi. Uning tanasi juda yumshoq, yengil hamda uning zichligi boshqa daraxt turlariga qaraganda ancha past. Ana shunday ijobiy xususiyatlari bilan nafaqat selluloza sanoatida, balki xalq xo'jaligida ham keng foydalaniladi. Terak daraxti asosida turli qutilar, dastaklar, qayiqalar, fanerlar va boshqa qurilish tarmoqlari sohalari uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Terak daraxtining kimyoviy tarkibiga kelsak, undagi selluloza miqdori 39,2-53,8% ni, lignin 17,6-27,2 % ni, gemitsellyuloza 20,1-34,6% ni tashkil qiladi.

Terak daraxtini ishqor eritmasida qaynatish usulini amalga oshirib, selluloza olish borasida bir qancha izlanishlar olib borilgan.

Hozirda, selluloza tarkibli xom ashyolarning asosiy manbai, paxta momig'idan tashqari, bargli va igna bargli daraxt turlari hamda bir yillik o'simliklarning boshqali ekinlarining poxollari va boshqalar hisoblanadi. Bunda ulardagi sellulozaning amaliy miqdori bir xilda desa bo'ladi (38-43%), lekin yog'ochdagi ligninning miqdori bir yillik o'simliklarnikidan 2,5-3 marta ko'p.

Kimyoviy qayta ishlash va xuddi shunday qog'oz uchun ham mo'ljallangan yuqori sifatli sellulozani olish maqsadida, yog'och tarkibidagi ortiqcha ligninni yo'qotish, samarali reagentlar va qaynatish usulini qo'llab, selluloza olish texnologiyasini takomillashtirish talab qilinadi. Shuningdek, tanlab olingan tekshiruv yo'nalishiga asoslanib, mahalliy xom ashyo sifatida terak yog'ochini ishlatish maqsadga muvofiqdir, sellulozaning oqartirilgan va oqartirilmagan turlarini kam chiqimli qilib ishlab chiqarish mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda gugurt ishlab chiqarish korxonalarining ikkilamchi xom ashyolarini kimyoviy qayta ishlashga yaroqli selluloza ajratib olish jarayoniga yo'naltirilgan tadqiqotlarni olib borildi.

Bunda asosan gugurt ishlab chiqarish korxonalarining asosiy xom ashyosi sanalmish terakning "Kaliforniya" navidan foydalanildi. "Kaliforniya" navli terakni (K/N-T) dastlab mexanik ishlov berishda turli ko'rinishga ega bo'lgan ikkilamchi chiqindi fraksiyalari hosil bo'ladi. Bular quyidagi rasmlarda keltirilgan, ya'ni;

Tadqiqot jarayonlarida yuqorida keltirilgan "Kaliforniya" navli terakni (K/N-T) dastlab mexanik ishlov berishda turli ko'rinishga ega bo'lgan ikkilamchi chiqindi fraksiyalarining har biri uchun matematik modellashtirish nazariyasi negizida, ularning tarkibidan selluloza ajratib olish uchun optimal pishirish parametrlari ustida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borildi.

Quyida ushbu ikkilamchi mahsulotlarning har biri uchun optimal sharoitlarining tadqiqot natijalari keltirilgan bo'lib, ular dastlab selluloza olish jarayoniga yana qayta mexanik ishlov berish bosqichidan o'tkazilish talab etadi.

**“Kaliforniya” navli terakning (K/N-T)
ikkilamchi chiqindi turi**



1-G-ICH – g‘o‘la shaklidagi
ikkilamchi chiqindi



2-Q-ICH - to‘sin ko‘rinishdagi
g‘o‘la o‘zagi ko‘rinishdagi
ikkilamchi chiqindi



3-F-Panel - Formatga ajratish
jarayonidan hosil bo‘lgan “panel”
ikkilamchi chiqindi



4-F-ICH - Forma berish jarayonida
hosil bo‘lgan ikkilamchi chiqindi



5-YAT-ICH - Yarim tayyor mahsulotning tovar ko‘rinishi jarayonidagi
saralashdan so‘ngi ikkilamchi chiqindisi



**1-rasm. “Kaliforniya” navli terakni (K/N-T) dastlab mexanik ishlov
berishda turli ko‘rinishga ega bo‘lgan ikkilamchi chiqindi fraksiyalari.**

Bunda, ya’ni **1-G-ICH** – g‘o‘la shaklidagi ikkilamchi chiqindisi, hamda **2-Q-ICH** - to‘sin ko‘rinishdagi g‘o‘la o‘zagi ko‘rinishdagi ikkilamchi chiqindilarini maxsus tegirmonlarda qayta payraha shakliga 3-5 sm li o‘lchamlarga keltirib olindi.

Quyidagi jihoz **1-G-ICH** – g‘o‘la shaklidagi ikkilamchi chiqindisi, hamda **2-Q-ICH** - to‘sin ko‘rinishdagi g‘o‘la o‘zagi ko‘rinishdagi ikkilamchi chiqindilarini payrahalarga ajratishga imkon beradi.

Tamburli yog‘ochni maydalagich - bu yog‘och maydalagichning bir turi bo‘lib, maydalangan mahsulotlarning shakli asosan yog‘och chiplaridir.

Ushbu asbob-uskunalar jurnallar, yog‘och qoldiqlarini (masalan, shoxlar, daraxt ildizlari, kichik diametrli jurnallar va boshqalar) va yog‘ochni qayta ishlash chiqindilarini ma‘lum uzunlikdagi chiplarga ishlov berish uchun qurilmadir.

Oqilona tuzilishi va yuqori ishlashi bilan baraban yog‘ochni maydalagich eng ilg‘or yog‘ochni maydalagich sifatida tanilgan.



2-rasm. "Model - EC600": Quvvat iste'moli: 15 kVt. Kuchlanish: 380 V.

"Mahsuldorlik hajmi /Unumdorlik miqdori": 400-500 kg / 8 dona. Pichoqlar soni - 2 dona. O'rnatish U/K/B: 135/106/170 sm. Og'irligi 1100 kg.

Quyidagi jihozlarda esa **3-F-Panel** - formatga ajratish jarayonidan hosil bo‘lgan “panel” ikkilamchi chiqindi va **4-F-ICH** - forma berish jarayonida hosil bo‘lgan ikkilamchi chiqindi, hamda **5-YAT-ICH** - yarim tayyor mahsulotning tovar ko‘rinishi jarayonidagi saralashdan so‘ngi ikkilamchi chiqindilari 1-3sm uzunlikda maxsus pichoqlar oraliqini sozlash orqali payrahachalarga ajratiladi, ya‘ni:

1-G-ICH – g‘o‘la shaklidagi ikkilamchi chiqindi;

2-Q-ICH - to‘sin ko‘rinishdagi g‘o‘la o‘zagi ko‘rinishdagi ikkilamchi chiqindi;

3-F-Panel - formatga ajratish jarayonidan hosil bo‘lgan “panel” ikkilamchi chiqindi;

4-F-ICH - forma berish jarayonida hosil bo‘lgan ikkilamchi chiqindi

5-YAT-ICH - yarim tayyor mahsulotning tovar ko‘rinishi jarayonidagi saralashdan so‘ngi ikkilamchi chiqindisi.

Tiplarga ajratilgan fraksiyalar tarkibidan sellyuloza ajratib olish jarayonlari tadqiqi amalga oshirildi va har bir tip uchun sellyuloza ajratib olishning optimal sharoitlari belgilab berildi. Quyida ushbu tadqiqot natijalarini amaliy ko‘rsatkichlarini kuzatish mumkin.

Gugurt ishlab chiqaruvch korxonalarining dastlabki hom ashyosi bo‘lgan Kaliforniya teragining chiqindilaridan kimyoviy qayta ishlashga yaroqli sellulozani natron usulda ajratib olishning texnologik jarayonlarining maqbul parametrlarini tanlash maqsadida uni mexanik maydalab, 1-jadval keltirilgan jarayonlarni amalga oshirildi.

1-jadval

**Terak yog‘ochining natronli qaynatish davridagi turli parametrlarini
sellyulozasini sifat ko‘rsatkichlariga tasiri**

№	NaOH, g/l	I-bosqich yanchish τ , daqiqa, 80-100°C	II-bosqich		Sellyulozaning sifat ko‘rsatkichlari				
			Qayn- tish τ , daqiqa	Qayna- tish, t°C	sel-za unumi, %	namlik %	kul miq- ri, %	α – sel-a, %	PD
1	10	20	20	100	-	-	-	-	-
2	20	40	40	120	-	-	-	-	-
3	30	60	60	140	47,4	3,3	1,6	93,2	1150
4	40	80	80	160	54,6	3,4	0,93	94,8	1050
5	50	100	100	180	46,1	3,3	0,72	95,1	720

Jadvalda turli temperaturalarda ishqoriy qaynatish jarayoni amalga oshirilgan bo‘lib, sellulozaning hosil bo‘lishida birinchi bosqichda 60 daqiqa oraliq‘ida mexanik yanchish va ikkinchi bosqichda 160°C da 40 g/l ishqor eritmasi ishtirokida 80 daqiqa mobaynida ishqoriy ishlov berish, eng optimal rejim sifatida tanlandi.

Unda selluloza unumi 54,6%, kul miqdori 0,93%, α -sellyuloza 94,8%, hamda polimerlanish darajasi 1050 tashkil etmoqda.

2-jadvaldan namunalarning har xil solishtirma namliklardagi suv bug‘ini shimuvchanligi turlicha ekanligi, ya‘ni sellulozaga qaraganda terak sellulozasining suv bug‘ini sorbsiyalanish darajasi yuqoriligi yoki bo‘lmasa terak sellulozasiga solishtirilganida topinambur sellulozasi namunalarning gidrofilligi yuqoriligini kuzatish mumkin. Bunday ko‘rsatkichlardan Topinambur o‘simligi «Fayz-Baraka» navidan olingan sellulozalarning reaksiyon qobiliyati yuqori ekanligi haqida xulosa qilish mumkin.

2-jadval

25°C da selluloza namunalarini suv bug‘ini sorbsiyasi

Namunalar	Paxta sellyulozasi	*TTCH sel- za	Terak daraxti sel- si	Topinambur «Fayz Baraka» sel-si
Solishtirma namlik, %	Shimuvchanlik darajasi, %.			
10	0,20	0,30	0,40	0,50
20	0,40	0,50	0,90	1,00
30	0,60	0,60	1,10	1,40
40	0,70	0,80	1,40	1,70
50	0,90	1,00	1,50	3,00
60	1,30	1,40	2,00	6,60
70	2,00	2,20	3,40	8,10
80	2,40	2,90	3,60	9,00
90	3,70	4,60	8,80	9,50
100	8,00	8,40	9,10	9,90

* TTCH - to‘qimachilik korxonasining tolali chiqindisi

Quyidagi 3-jadvalda selluloza namunalarning kapilyar g‘ovaklilik xarakteristikasi keltirilgan.

3-jadvaldan kuzatish mumkinki boshqa selluloza namunalariga nisbatan paxta va TTCH sellulozalarining nisbiy yuza va nisbiy shimuvchanlik xossasi yuqori,

terak selliyulozasi namunasining S_{ud} ko'rsatkichi ham Topinambur o'simligi navlari asosidagi selliyulozalar S_{ud} dan yuqori. Lekin Topinambur o'simligi «Fayz Baraka» navi asosida olingan selliyulozalarning W_o va R_k ko'rsatkich farqlari paxta, TTCH hamda terak selliyulozalaridan yuqori bo'lib, kapillyar radiusi 105-112 A^0 ni ko'rsatmoqda.

3-jadval

Sellyuloza namunalarining kapilyar g'ovaklilik xarakteristikasi

Namunalar	Paxta sellyulozasi	TTCH sellyulozasi	Terak daraxti sellyulozasi	Tapinambur «Fayz Baraka» sellyuloza
X_m , g/g	0,0143	0,0137	0,0125	0,0052
Solishtirma sirt, $S_{ud} \cdot m^2/g$	49,876	47,790	44,008	24,905
G'ovaklarning umumiy hajmi * W_o , sm^3/g	0,095	0,089	0,074	0,215
kapillyar radiusi R_k , A^0	38,8	49,2	76,3	112

“Polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezi tadqiqi, ijobiy natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish va ularning qo'llanilish sohasi” ga qaratilgan to'rtinchi bobida, “Kaliforniya” navli terak daraxtining ikkilamchi xom ashyolari, hamda paxta selliyulozasi asosida karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezi tadqiqi, hamda olingan reagentni sifat ko'rsatkichlari fizik kimyoviy tahlillari, hamda strukturaviy xossalari o'rganildi.

Ushbu bo'lim paxta selliyulozasi va kraxmal aralashmalaridan yuqori almashinish darajasiga ($\gamma \geq 0,9$) ega bo'lgan karboksimetilli kompozitsiyalarini sintez qilishning muqobil parametrlarini aniqlashga bag'ishlangan.

Teng miqdordagi Na-KMTS + Na-KMK kompozitsiyasini sintez qilishda foydalaniladigan polisaxaridlar, ishqorning suvdagi eritmasi va monoxlorsirka kislotasining natriyli tuzi (Na-MXSK) muqobil nisbatlarini aniqlash maqsadida hamda ularni asosiy mahsulotning unumiga, karboksimetil gruppasining almashinish darajasiga (AD), polimerlanish darajasiga (PD) va mahsulotning suvda eruvchanligiga ta'siri o'rganildi.

Natriy gidroksidining umumiy sarfi quyidagi mol nisbatlardan hisoblab topildi – selliyuloza:NaOH:H₂O=1:2:18. Monoxlornatriyatsetat sarfi selliyuloza:Na-MXSK=1:1,8 nisbatda olindi. Reagentlar aralashmasini 1/2 dan 1/6 nisbatlargacha fraksiyalab (bo'lib-bo'lib) qo'shib borildi.

Karboksimetillash quyidagicha amlga oshirildi. Z shakldagi aralashtigichli idishga paxta selliyulozasi va kraxmal teng nisbatlarda solindi (idishning 0,6 qismigacha). Hisoblangan nisbatda natriy gidroksid eritmasi quyildi. Reagentlarni qo'shishning har bir bosqichida natriy gidroksid eritmasi va Na-MXSK bir hil hajmlarda qo'shib borildi, ya'ni uch bosqichda sintezni amalga oshirilsa, har bosqichda reagentlarni 1/3 qismlari qo'shib borildi. Merserlash jarayonlarini 15-22°C da 30 minut davomida olib borildi (aralashtirish tezligi minutiga 200 martani tashkil etdi). So'ngra hisoblangan miqdorda Na-MXSK qo'shib 20 minut davomida karboksimetillash olib borildi. Reagentlarni qo'shish bosqichlari oshirilsa, har bir bosqichda qo'shiladigan reagentlarning miqdorlari ham shunga mos ravishda

kamaytiriladi, karboksimetillash vaqti har bosqichda 10 minutgacha kamaytiriladi. Karboksimetillashni 65-80°C da yetiltirish idishida tugallanadi.

Paxta va terak sellyulozalari birgalikda kompozit tarzida kimyoviy qayta ishlash jarayoniga yo'naltirildi, ya'ni kompozit aralashma sifatida sellyulozaning yuqori almashinish darajasiga ega karboksimetilsellyuloza hosilasi, ya'ni polianionli sellyuloza (PATS) olindi.

4-jadval

**KMS ning almashinish darajasiga reagentlar nisbatining bog'liqligi
(sellyuloza:NaOH:suv=1:2:12 mol nisbatda)**

Sellyuloza: ClCH ₂ COONa mol nisbatda	1:0,1	1:0,25	1:0,5	1:0,7	1:1,0	1:1,2	1:1,4	1:1,7	1:2	1:3
KMS almashinish darajasi	7,1	12,6	25,2	32	44	55	62	72	87	102

5-jadval

“Kaliforniya” navli terak sellyulozasidan olingan PATS ning hamda Tsh-88.2-12-2005 va Tsh-2231-001-5353-5770-01 lar asosida sanoatda ishlab chiqarilayotgan PATS larning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	“*K-PATS”	1Tsh	“*K-PATS”	2Tsh 75/400	“*K-PATS”	2Tsh 70/300	“*K-PATS”	2Tsh 85/500
1	Polimerlanish darajasi, kam emas	1050	500	950	400	750	250-350	850	500-550
2	Karboksil gruxlari bilan o'rin almashish darajasi	105	80-100	100	65-85	105	65-75	95	80-90
3	Asosiy modda miqdori, %	65	50	67	48	63	48	65	50
4	2% li suvli eritmaning dinamik qovushqoqligi, mPas	138,8	100	105	60	80	40	147,0	100
5	Suvda eruvchanligi, %	99,2	97	98,8	98	98,4	98	98,8	98
6	Muhit, pH	10	8-12	9	8-12	9	8-11	11	8-12

* K-PATS-“Kaliforniya” navli terak daraxti sellyulozasidan olingan PATS

*1Tsh-88.2-12-2005

*2Tsh-2231-001-5353-5770-01

Karboksimetilsellyuloza (KMS) olish uchun xom ashyo sifatida monoxlorsirka kislotaning natriyli tuzi va sellyuloza ishlatiladi. Sanoatda KMS mexanoximiya usulida olish uchun monoapparatda sellyuloza 18%li ishqor eritmasida odatdagi temperaturada merserlanadi (sellyuloza massasini namlashga yetarli hajmda), maydalanadi va tolalarga ajratiladi. Keyin unga 35-40°C da quruq monoxlorsirka kislotaning natriyli tuzi, aralashtirib turgan holatda, oz-ozdan qo'shib boriladi, KMS hosil bo'ladi.



KMS ning almashinish darajasi, asosan sellyuloza bilan natriy monoxloratsetatning qay nisbatda olinishi asosida boshqariladi, hamda alkalitsellyuloza tarkibidagi suv va ishqor konsentratsiyasi ham bundan mustasno emas.

Quyida “Kaliforniya” navli terak daraxti sellyulozasidan olingan PATS ning hamda Tsh-88.2-12-2005 va Tsh-2231-001-5353-5770-01 lar asosida sanoatda ishlab chiqarilayotgan KMSlarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Jadvaldan ko‘rish mumkinki “Kaliforniya” navli terak daraxti sellyulozasidan olingan PATSning barcha sifat ko‘rsatkichlari Tsh-88.2-12-2005 va Tsh-2231-001-5353-5770-01 talablariga javob beradigan bir nechta markalari olindi. Ular 105/1000, 100/950, 105/750, 95/850 kabilardir. Olingan PATSning polimerlanish darajasi, karboksil gruhlari bilan o‘rin almashish darajasi, asosiy modda miqdori, 2% li suvli eritmaning dinamik qovushqoqligi, suvda eruvchanligi va shularga o‘xshash turli ko‘rsatkichlari keltirilgan texnik shart talablariga mos tushishi aniqlandi.

6-jadval

Hozirda ishlab chiqarishda mavjud texnologiya asosida, hamda “SISTEM” usulida olingan PATS namunalarining sifat ko‘rsatkichlari

PATS namuna-lari	PATS ning ko‘rsatkichlari						
	Namlik miqdori %	Karboksil gruxlari bilan o‘rin almashish darajasi	Asosiy modda miqdori, %	2% li suvli eritmaning dinamik qovushqoqligi, mPas	Suvda eruvchanligi, %	pH	PD
Terak daraxti sellyulozasi asosidagi PATS							
1*	12	91	51	105,4	98,0	12	450
2+	7	105	62	135,4	98,8	11	800
Pavloniya daraxti sellyulozasi asosidagi PATS							
1*	12	92	49	92,8	98,3	11	460
2+	8	107	65	122,7	98,9	9	650
Paxta sellyulozasi asosidagi PATS							
1*	11	88	51	118,2	98,4	11	750
2+	9	105	63	215,8	98,9	9	1250

1* -Hozirda ishlab chiqarishda mavjud texnologiya asosida olingan PATS ning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

2+ - “SISTEM” usulida olingan PATS ning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

6-jadvaldan ko‘rish mumkinki, hozirda ishlab chiqarishda mavjud texnologiya asosida, hamda “SISTEM” usulida olingan PATS namunalarining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari orasida sezirarli darajada farq katta. Masalan, mavjud texnologiyada olingan PATSning sifat ko‘rsatkichlaridan biri polimerlanish darajasining pastligi, ya’ni terak sellyulozasi asosidagi PATS ning polimerlanish darajasi 450 ni, pavloniya sellyulozasi asosidagi PATSning polimierlanish darajasi 460 ni yoki bo‘lmasa paxta linti asosidagi PATS niki 750 ni ko‘rsatmoqda. “SISTEM” usulida olingan KMS namunalarining polimerlanish darajasi esa bir muncha yuqoridir. Bunga sabab, yuqorida ta’kidlanganidek “SISTEM” usulining afzaligidadir, ya’ni

jihozning ichki konstruksiyasini murakkablashtirilganligi, PATS olishda har bir jarayonga moslashishning operativ dasturlari mavjudligi, bunda destruktiv holatlarning keskin kamayganligi, ishlab chiqarish quvvatini yuqoriligi. Bu omillar taklif etilayotgan texnologiya asosida KMS ning turli sohalar uchun bir nechta markalarini ishlab chiqarishga imkon beradi.

Tadqiqotning predmeti sanoat korxonalarining ikkilamchi mahsulotlarini pishirish jarayoni, olingan sellyuloza va uning asosida texnik karboksikraxmalni, neft-gaz sanoati uchun burg'ulash qorishmalarini barqarorlovchi reagent sifatida asosiy va yordamchi xom ashyo sifatida kullash hisoblanadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda termik barqaror suv o'tkazmaslik ko'rsatkichi ijobiy sanalgan polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezi amalga oshirildi.

Burg'ulash qorishmalarini tayyorlash texnologiyasi uchun samarali polimer reagentlarni tanlashda barqarorlikni yaratish mumkin. $3,8\text{g/sm}^3$ zichlikdagi burg'ulash qorishmasi, quduqlarni burg'ulash uchun zarur bo'lgan texnologik xususiyatlarga ega suyuqlik yo'qotilishi $3,8\text{sm}^3/30\text{daq}$ ga teng sanaladi.

7-jadval

Teng nisbatlardagi terak hamda paxta sellyuloza kompozitlari bilan kraxmalning turli nisbatlardagi PATS reagentining harorat ta'siridagi suv o'tkazmaslik ko'rsatkichlari

№	Nisbatlar	Suv o'tkazmaslik ko'rsatkichi, $3,8\text{sm}^3/30\text{daq}$	Harorat, $^{\circ}\text{C}$	Suv o'tkazmaslik ko'rsatkichi, $3,8\text{sm}^3/30\text{daq}$
1	100/0	6,7	60	6,8
2	90/10	4,8	80	6,9
3	80/20	4,2	100	8,9
4	70/30	3,7	120	11,2
5	60/40	3,1	140	12,4
6	50/50	2,6	160	14,7

Teng nisbatlardagi terak hamda paxta sellyulozalari kompozitlari bilan kraxmalning turli nisbatlardagi PATS reagentining harorat ta'siridagi suv o'tkazmaslik ko'rsatkichlari quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadvaldan kuzatish mumkinki, olingan PATSni burg'ulash aralashmasini suvni o'tkazmaslik, ya'ni barqarorlovchi xususiyati, kompozitsiyada kraxmalning miqdoriga va sintez qilish haroratiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Ya'ni, kraxmal miqdorini tarkibda oshib borishi reagentning suv o'tkazmaslik ko'rsatkichini barqaror ushlab turilishiga imkon bermoqda. Nisbatlar 90/10 dan 50/50 ga qadar orttirilib borishi suv o'tkazmaslik ko'rsatkichini, $3,8\text{sm}^3/30\text{daq}$ ga barqarorligini ta'minlamoqda.

Aksincha 8-jadvalda kraxmal tarkibsiz reagentning $3,8\text{sm}^3/30\text{daq}$ ga barqarorligi keskin ravishda oshib borishi (barqarorlash xususiyatini kamyishi) kuzatildi. Neft-gaz sanoatida burg'ulash qorishmalar tarkibidagi stabillovchi reagentlarning sifatiga juda ham katta talab qo'yiladi. Burg'ulash davrida yer osti suvlarini burg'ulanayotgan quduqqa zarari yetmasligi, jarayon davrida turli qattiq plastlarni uchrashi kabi nojo'ya unsurlarni yuzaga kelishi qo'shimcha energiyani

hamda burg‘ulash qorishmalari tarkibidagi reagentlar sarfini beqaror holatga olib kelishga sabab bo‘ladi.

8-jadval

Teng nisbatlardagi terak hamda paxta sellyulozalari kompozitlari asosida PATS reagentining harorat ta’siridagi suv o‘tkazmaslik ko‘rsatkichlari

№	Nisbatlar	Harorat, °C	Suv o‘tkazmaslik ko‘rsatkichi, 3,8sm ³ /30daq
1	100/0	60	6,7
		80	9,1
		100	12,2
		120	15,8
		140	21,9
		160	29,7

Dissertatsiya tadqiqotida aynan shu unsurlarga barxam bera oladigan barqarorlovchi reagent ustida olib borilgan tadqiqotlar burg‘ulash qorishmalarini suv o‘tkazmaslik ko‘rsatkichlarini ijobiy tarzda belgilashga, jarayon davrida tarkibni rostdlashga imkon beradi.

9-jadval

“SISTEM” usulida olingan PATS namunasining suv o‘tkazmaslik ko‘rsatkichi (3,8sm³/30daq)


Ko‘rsatkichlar	“SISTEM” usulida olingan PATS namunasi		
	Texnik talablar	Aslida	Tahlillar bilan tuzilgan xulosa
Mutlaqo quruq PATSning loyli eritmasining suv yoqotilishi, uning massa ulushi 0,75 (asosiy modda uchun xisoblanganda) sm ³ /30min dan ko‘p emas	4,0	3,8	Mos keladi
Suv miqdori, ko‘p emas	10	10	Mos keladi
Vodorod ko‘rsatkichi, pH 1,5% suvli eritmada	6,0-10	9	Mos keladi

Quyida “Kaliforniya” navli terak daraxtining ikkilamchi mahsulotlari, hamda paxta linti asosida karboksimetilli kompozitsiyalarini olish texnologiyasini prinsipial sxemasi keltirilgan.

Ushbu texnologik prinsipial sxemada gugurt ishlab chiqaruvchi korxonada xom ashyo sifatida ishlatiladigan “Kaliforniya” navli terak daraxtining ikkilamchi mahsulotlaridan kimyoviy qayta ishlash yo‘li bilan sellyuloza ajratib olish texnologiyasining ketma-ketligi aks etgan.

Dastlab terak ikkilamchi mahsulotlari (1) maxsus tegirmonlarda (2) payraxalarga ajratiladi va transpartyor (3) yordamida qaynatish qozoniga (4) yuboriladi. Bu yerda natronli usulda sellyulozani pishirish jarayoni amalga oshiriladi. Jarayon so‘ngida ajrab chiqqan sellyuloza maxsus sentrefugalarda (5) siqib olinadi va PATS olish jarayoniga – monoapparatga (6) uzatiladi.

Monoapparatda ishqoriy sellyuloza hosil bo'lgandan so'ng, ya'ni merserlash jarayonidan keyin natriy monoxloratsetat ishtirokida ishlov berilib massa yetiltirish (7) jarayoniga uzatiladi. Quritish agregatida (8) quritilib yeg'gich (9) orqali tegirmonlardan (10) o'tkazilib omborxonaga joylanadi.



4-rasm. “Kaliforniya” navli terak daraxtining ikkilamchi mahsulotlari hamda paxta linti asosida karboksimetilli kompozitsiyalarini olish texnologiyasini prinsipial sxemasi:

1-terak daraxtining ikkilamchi mahsulotlari, 2-payraxalarga ajratuvchi maxsus tegirmon, 3- pishirish qozoni, 4-payraxa yuklagich, 5-sentrifuga, 6-monoapparat, 7-yetiltirish sig'imi, 8-quritish agregati, 9-yeg'gich, 10-tegirmon-omborxona.

Terak daraxti sellyulozasining iqtisodiy samaradorligi. Amalga oshirish natijasida yiliga 500 tonna ishlab chiqarishda kutilayotgan iqtisodiy samara $E = (Ts_1 - Ts_2) \times 500$

Bu yerda, ishlab chiqaruvchi texnologik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan 1 tonna sellyulozaning S_1 – narxi 22 mln so'mni tashkil etadi.

S_1 –innovatsion loyiha asosida ishlab chiqarilgan 1 tonna sellyuloza qiymati 5 million 800 ming so'm.

$$YE - (22\,000\,000 - 4\,000\,000) \times 500 = \underline{\underline{9,0 \text{ milliard so'm.}}}$$

Terak sellyulozasi hamda paxta linti asosida olingan karboksikraxmalning iqtisodiy samaradorligi. Innovatsion loyiha asosida ishlab chiqarilgan 1 tonna terak sellyulozasi 12 000 000 so'mni tashkil etadi. 1 tonna sellyulozani sotish qiymati 32 000 000 so'mni tashkil etadi. Yiliga 500 tonna mahsulot ishlab chiqarishda loyihaning kutilayotgan iqtisodiy samaradorligi **10,0 milliard so'm.**

11-jadval

1(bir) tonna terak selluloza ishlab chiqarish uchun sarf etiladigan xom ashyolar narxi

№	Xom ashyo turlari	Sarf- norma, kg	1kg xom ashyo narxi, so'm	Umumiy narx
1	Terak sellulozasi	2000	500	1 000 000
2	O'yuvchi ishqor (NaOH)	400:100 200	14000	2 800 000
JAMI	So'm			4 800 000

12-jadval

Terak sellulozasi ishlab chiqarish uchun jihozlar HISOB

№	Jihoz turi, nomi	Soni, dona	Narxi, so'm
1	Maxsus tegirmon	1	30 000 000
2	Pishirish qozoni	1	150 000 000
3	Sentrefuga	2	15 000 000
4	Sita, zanglamaydigan	-	20 000 000
Jami	so'm		

Eslatma: Mahsulot yuvish xovuzlari, lignin utelizatsiyasi, hamda qo'shimcha binolar qurilishi, selluloza ishlab chiqarish uchun talab etiladigan infrastrukturasi bog'liq.

XULOSA

1. Ilk bor gugurt ishlab chiqarish korxonalarida foydalaniladigan Kaliforniya teragining ikkilamchi xom ashyolarini kimyoviy qayta ishlashga yaroqli selluloza ajratib olishga yo'naltirilgan;

2. Xom ashyo sifatida ishlatiladigan Kaliforniya teragining ikkilamchi mahsulotlaridan selluloza olishning texnologik jarayonlariga turli omillarning ta'siri tadqiq etilgan va maqbul parametrlar aniqlangan. ($C_{NaOH} = 4g/l$; $80^{\circ}C$ maydalash vaqti 80 min; pishirish vaqti 160 min);

3. "Kaliforniya" teragi, paxta sellulozalari va kraxmal asosida ularning karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezi tadqiq etilgan, hamda dastlabki moddalarning maqbul nisbatlari aniqlangan (terak sellulozasi:paxta sellulozasi:kraxmal=1:1:1, massada);

4. Burg'ulash qorishmasi tarkibiga polisaxaridlarning natriy karboksimetilli kompozitsiyasini qo'shish bilan suspenziyaning barqarorligini oshirishga va uning suvni saqlash xususiyatini oshirishga erishilgan. Suspenziyadagi suvni saqlash xususiyati $6,7 \text{ } 3,8\text{sm}^3/30\text{daq}$. $2,7 \text{ } 38\text{sm}^3/30\text{daq}$ gacha ortgan;

5. Polisaxaridlarning karboksimetilli kompozitsiyalarini sintezining yaratilgan innovatsion texnologiyasi ishlab chiqarishga joriy etilgan va ulardan burg'ulash qorishmalarini yangi barqarorlovchi tarkibi ishlab chiqilgan, hamda "Karbonam" MCHJda amaliyotga joriy etilgan ("Gissarneftgaz" O'zbekiston-Shveysariya qo'shma korxonasining 2023 yil 26 apreldagi 238-01/04-son ma'lumotnomasi).

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ DSc.03/31.01.2023.К/Т.78.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

СИДДИКОВ МУРОДХУЖА АБДУЖАЛОЛ УГЛИ

**СИНТЕЗ КАРБОКСИМЕТИЛЬНЫХ КОМПОЗИЦИЙ
ПОЛИСАХАРИДОВ И ОБЛАСТИ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ**

02.00.14 – Технология органических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА
ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Термез-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.3.PhD/T5839.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.tersu.uz и информационно-образовательном портале ZIYONET по адресу www.ziyonet.uz

Научный руководитель:

Муродов Музаффар Муродович
доктор технических наук

Официальные оппоненты:

Хусейнов Арслонназар Шерназарович
доктор химических наук, профессор

Аллабердиев Фарход Хамроевич
кандидат химических наук, доцент

Ведущая организация:

Институт общей и неорганической химии

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 г. в «__» часов на заседании Ученого совета DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 при Термезском государственном университете по адресу: 190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол авлод, 43. Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz.

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета за № ____, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол авлод, 43. Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 г.
(протокол рассылки № ____ от «__» _____ 2025г.).

И.А. Умбаров
Председатель научного совета
по присуждению ученой
степени, д.т.н., проф.

Ш.А. Касимов
Ученый секретарь научного
совета по присуждению
ученой степени, д.х.н., проф.

Р.В.Аликулов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученой степени, д.х.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии PhD)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В настоящее время в мире проводятся масштабные научные исследования, направленные на увеличение количества и повышение качественных показателей продукции, выпускаемой предприятиями химической промышленности, снижение ее себестоимости и обеспечение конкурентоспособности на мировом рынке. В частности, актуальным является совершенствование стадий процесса извлечения целлюлозы из древесных отходов при производстве целлюлозы и органических материалов на ее основе, а также разработка технологии получения малотоннажных полуфабрикатов и готовых органических продуктов на основе целлюлозы и ее производных, используемых в химической, медицинской, фармацевтической, лакокрасочной промышленности, нефтегазовом и строительном секторах.

В мире ведутся научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы по получению целлюлозы – природного сырья и органических материалов на её основе. В связи с этим особое внимание уделяется получению целлюлозы и её производных путём механической и химической переработки отходов столярного и спичечного производств, совершенствованию технологии изготовления изделий на их основе, повышению качественных показателей готовой продукции, созданию органических материалов с высокими эксплуатационными и физико-механическими свойствами.

В нашей республике особое значение придаётся разработке и внедрению передовых инновационных технологий, ускоренному развитию отраслей промышленности. В результате проводимых в этом направлении реформ достигаются определённые успехи, последовательно проводится масштабная научно-практическая работа. В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»² обозначены важные задачи, направленные на «вывод промышленности на качественно новый уровень, глубокую переработку местного сырья, ускорение производства готовой продукции, освоение и совершенствование технологий получения новых видов продукции». В этой связи большое значение имеет разработка технологии получения новых видов органических материалов на основе химически перерабатываемой целлюлозы из стеблей однолетних растений.

Указы Президента Республики Узбекистан № ПФ-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года и УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана для 2022-2026» от 28 января 2022 г., ПК-4265 от 3 апреля 2019 г. «О мерах по дальнейшему реформированию химической промышленности и повышению ее инвестиционной привлекательности» и ПК-4805 от 12 августа 2020 г.

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

«Повышение качества непрерывного образования и научной продуктивности в областях химии и биологии». Результаты данного диссертационного исследования служат в определенной степени для обеспечения выполнения решений «О мероприятиях» и реализации задач, определенных в других нормативно-правовых документах, связанных с данными постановлениями.

